



JADIDS AND WORLD LITERATURE (HAMZA IN TURKISH)

Adhambek Alimbekov

*Professor of Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

Abstract: The article provides information about the fact that our ancestors were well aware of world literature, especially Turkish, Azerbaijani, and Tatar literature, and that they regularly got acquainted with the press published in those countries. Hamza Hakimzada Niyazi's intention to write a drama about Ta'at Pasha, one of the Turkish statesmen, after living in Izmir and Istanbul for several months, is discussed. The opinions of Uzbek writers about Turkish artists, articles published in the Turkish press about Uzbek writers are discussed.

Key words: "Sarvati funun", "Taraqqi", "Sadoyi Turkestan", nation, hurriyat, Tal'at poshsho, in memory of literature, national identity, independence.

JADIDLAR VA JAHON ADABIYOTI (HAMZA TURKIYADA)

Adhambek Alimbekov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori
Toshkent, O'zbekiston*

Annotasiya: Maqolada jadid bobolarimizning jahon adabiyotidan, xususan-turk, ozarbayjon, tatar adabiyotlaridan yaxshi xabardor bo'lib turganligi, u yurtlarda nashr qilinadigan matbuot bilan muntazam tanishib borganliklari haqida ma'lumot beriladi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning Izmir, Istanbul shaharlarida bir necha oy yashab, turk davlat arboblariidan Ta'at poshsho haqida drama yozmoqchi niyati xususida fikr bildiriladi. O'zbek adiblarining turk ijodkorlari haqidagi fikrlari, Turk matbuotida o'zbek adiblari to'g'risida chop etilgan maqolar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: "Sarvati funun", "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", millat, hurriyat, Tal'at poshsho, adabiyoti jadida, milliy o'zlik, istiqlool.

Аннотация: В статье приводятся сведения о том, что наши предки были хорошо знакомы с мировой литературой, особенно турецкой, азербайджанской и татарской, и регулярно знакомились с прессой,

издававшейся в этих странах. Обсуждается намерение Хамзы Хакимзада Ниязи написать драму об одном из турецких государственных деятелей Таат-паше, прожившем несколько месяцев в Измире и Стамбуле. Обсуждаются мнения узбекских писателей о турецких художниках, опубликованные в турецкой прессе статьи об узбекских писателях.

Ключевые слова: «Сарвати фунун», «Таракки», «Садойи Туркестан», нация, хуррият, Талъат пошшо, память литературы, национальная идентичность, независимость.

Jadid ziyolilarimiz mumtoz adabiyotimiz tarixini puxta bilgani holda, jahon adabiyotidan ham yaxshi xabardor bo'lganlar. Sharq adabiyoti, xususan turk, ozarbayjon, tatar adabiyotini muntazam kuzatganlar. U yoqlarda chop etilayotgan matbuot bilan tanishib borganlar. Shular ta'sirida o'zlari ham jurnallar nashr qildira boshladi. ("Taraqqiy", "Oyina", "Sadoyi Turkiston" va boshqa). Har bir ziyoli, ijodkor o'z manaviyatini yuksaltirish uchun jahon adabiyotini va san'atini kengroq o'rganishga harakat qilishi tabiiy. Ammo jadidlarimiz jahon adabiyotini teran o'rganib o'zbek adabiyoti, san'atini rivojlantirishda andoza olishni o'ylaganlar. XX asrning birinchi choragidagi adabiyotimizda shakl va mazmun jihatdan keskin burilish bo'lgani buning misoli. Jadidlar adabiyotda sifat o'zgarishi qilib, adabiyot, ta'lim orqali xalqni ma'rifatli qilish, ma'naviyatini, maorifini yuksaltirish uchun harakat qildilar. Mustamlaka zulmidagi o'sha yillarda, o'zbek ziyolilari uchun turk madaniyatini, adabiyoti bir yorug' tuynuk edi. Jadidlar ijodida "vatan", "millat", "hurriyat" mavzularining bo'rtib (dominant) turishida turk, tatar ijodkorlarining, matbuotining ta'siri bo'lgani shubhasiz. Ilm, ma'rifat orqali xalqning ko'zini ochib, jaholatdan qutilishni M. Behbudiy, A. Avloniy, Fitrat, A. Qodiriy, Cho'lpon, Hamza va boshqa ilg'or adiblarimiz yaxshi his qilganlar. Mashhur yozuvchimiz A. Qodiriy bu haqda 1925 yil "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 4-sonidagi "Turkiya matbuoti" maqolasida yozgandi: "Biz ham aytamizki, bugun Sharq olami, ayniqsa yangi turk dunyosi ishq mamnux, mohi siyohlarni va ularning muharrirlarini emas, Yahyo Kamollarni, Robindranat Tagorlarni ko'rmak istaydilar... Rafiq Xolid, Xolida Adib, Yahyo Kamolning bugungi hayotni va muhitning aksi bo'lg'on asarlari kerakdir"[1]. Chunki turk adabiyotida ma'rifatparvarlik Yevropa adabiyotining, ko'proq fransuz adabiyotining ta'sirida birmuncha ilgari - XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlagandi. G'arb adabiyoti ta'siri sezila boshlagan davrni turk adabiyotshunoslari o'z navbatida uchga bo'ladilar: Tanzimot adabiyoti, Adabiyoti jadida, ya'ni jadid adabiyoti, XX yuz yil adabiyoti (jumhuriyat e'lon qilingunga qadar).

Turk matbuoti, ayniqsa, "Turk yurti" va "Sarvati funun" jurnali Turkistonda mashhur bo'lib, bizning jadidlarimizni turk va Yevropa adabiyoti bilan tanishtirishda o'rni muhimdir. Qo'qondagi Hamza muzeyida "Sarvati funun" jurnalining ko'plab sonlari va Fuat Ko'prulining asrimiz boshida e'lon qilingan "Turk adabiyoti" kitobining saqlanishi fikrimiz dalilidir. Matbuot, rus-turk urushida asir olingan va O'rta Osiyoda surgunda o'qituvchilik qilgan turk zobitlari, ayniqsa, tilning yaqinligi ziyolilarimizni turk madaniy hayoti bilan tanishtirishning asosiy omillaridan bo'lgan. A. Cho'lpon Turkiyadagi voqealarga bag'ishlab

she'rlar, Tovfiq Fikrat singari shoirlar haqida maqolalar yozsa, A. Fitrat, Hamza yana bir qancha o'zbek ziyolilari Istanbulda bir muncha vaqt tahsil olganlar. Hamza "Dorulvoizin"da o'qigan. Hamzaning chet ellardagi hayoti hamzanavislar tomonidan ozmi- ko'pmi o'rganilgan. Izmirda, Istanbulda bo'lgan Hamza turk tarixi, madaniyati bilan qiziqqanligi shubhasiz. H. Niyoziyning epistolyar merosi - xatlarida turk tilida yozilgan xatlar bo'lishi bilan birga, Turkiya hayotiga oid ma'lumotlar ham bor. Hamzaning 1919 yil 21 martda Hamidxon afandiga yozgan maktubining orqa betida "Tal'at afandi" haqidagi p'esaning rejasi keltirilgan. Tal'at afandi 1908 yilning 3 iyulidagi yosh turklar inqilobini amalga oshirganlardan biri bo'lib, asr boshidagi Turkiya siyosiy olamida ta'siri kuchli edi. Tal'at afandi, Anvar poshsho, Javdod poshsho yosh turklar inqilobidan so'ng siyosatdagi asosiy arboblardan edilar. Bizningcha Hamza Tal'at afandi shaxsi misolida, XX asr boshidagi Turkiya hayoti haqida asar yozmoqchi bo'lgan, ammo nima sababdandir amalga oshirilmagan. Turk adabiyoti, madaniyatini yaxshi bilgan Hamzani Turkiyada shoir sifatida qanchalik bilishadi? Hamza hayotligida turk matbuotida asarlari e'lon qilinganmi-yo'qmi, bu biz uchun hozircha noma'lum. Sobiq sho'rolar vaqtida esa, shoir asarlari turk tilida chop etilgan emas (Sho'ro shoirlari haqidagi bir manzamani (antologiya) hisobga olmaganda). Istiqlolimiz sharofati tufayli H. H. Niyoziy asarlari Turkiyada nashr qilina boshladi. U haqida ilmiy maqolalar yozildi va yozilyapti. "Turk dunyosi" adabiy jurnalining 1996 yilgi 1-sonida fan doktori Temur Xo'jao'g'lining "Zamonaviy o'zbek she'ri" nomli ilmiy tadqiqoti e'lon qilingan. Temur Xo'jao'g'li so'nggi yuz yillik she'riyatimiz tarixini quyidagicha tasnif qiladi:

1. O'tish davri (1860-1910): Chig'atoy she'riyatidan zamonaviy she'riyatga o'tish.
2. Jadid (yangilikchi) davri (1910-1930)
3. Sovet davri (1930-1991)
4. Mustaqllik davri (1992 yildan so'ng)

Maqolada jadid davrida ijod qilgan shoirlar haqida so'z yuritilarkan Abdurauf Fitrat, Hamzalarning yangi modern she'r namunalarini yaratganligi alohida ta'kidlanadi.

"Turk dunyosi" jurnalining o'sha yilgi 2-sonida ham professor I. Qo'chqortoev va turkiyalik tadqiqotchi Oynur O'zning A. Fitrat, Hamza, A. Qahhor, S. Ahmad haqidagi maqolalari va asarlaridan namunalar berilgan. Bu maqolada Hamza she'riyati, dramaturgiyasi haqida imkoni boricha kengroq ma'lumot berishga harakat qilingan. "Kim donish bo'lsa", "Tasvirda", "Salom ayting", "Toshbaqa va chayon" she'rlari ilova qilib berilgan. Turkiyada o'zbek she'riyatiga oid birinchi antologiya 1988 yili Irfon Anvar Nasriddin o'g'li tarafidan tayyorlanib, "Hozirgi O'zbekiston she'riyati antologiyasi" nomida Anqarada nashr qilindi. Bu majmuada 50 ta o'zbek shoirlarining 98 ta she'ri o'zbek tilida lotin alifbosida va turk tilida qo'sh sahifa qilib berilgan. Antologiya Hamza she'rlari bilan boshlanganligi, ayniqsa, muhimdir. Turkiya matbuotida bu majmua haqida taqrizlar e'lon qilinadi, shu munosabat bilan o'zbek she'riyati haqidagi fikrlar o'rta tashlandi.

1997 yil 4-7 noyabr kunlari Anqara shahrida bo'lib o'tgan turkiy xalqlarning

xalqaro anjumanida bir nechta o'zbek olimlari ishtirok etdilar. Professorlar-Laziz Qayumov, Begali Qosimov, Umarali Normatov, dosent Adhambek Alimbekov yana ikki kishi. Xususan professor L. Qayumovning "Istiqlol va Hamza" mavzusida ma'ruzasi tinglovchilarda Hamza ijodiga yanada qiziqish uyg'otdi.

Turkiyada nashr qilinayotgan 30 tomlik "Turk dunyosi tarixi" kitobiga H. H. Niyoziy hayoti va ijodiga bag'ishlangan maxsus maqola yozildi. Turkiya televideniyasining "Somon yo'li" ko'rsatuvida Hamza ijodiga bag'ishlangan eshittirishlar uyushtirildi. Bugungi kunda Turkiyaning bir nechta universitetlarida (Masalan: Istanbul universiteti, Anqarada G'ozu universiteti) o'zbek tili va adabiyoti o'qitilmoqda. O'zbek adabiyoti dasturida Hamza hayoti va ijodini alohida o'rganish ko'zda tutilgan.

Jadidlarimizdan H.H.Niyoziy ijodini Turkiyada o'rganilishidagi muhim jihat Hamza ijodiga, shoir shaxsiga "Yasha sho'roning kuychisi" (garchi Hamza "Yasha sho'ro" deya yozmagan bo'lsada) sifatida emas, aksincha millat uchun, xalq uchun qayg'urgan shoir: "Yo millat deb kuyida o'l Nihoniy, Yo dunyo deb millatdan uz vafoni" satrlarining muallifi sifatida qaralishidir. Kelajakda shoirning alohida to'plamlari turk tilida nashr qilinishiga, dramalari turk sahnasida o'ynalishiga ishonchimiz komil.

Yaqinda, ya'ni 2023 yilning 11-12 dekabrda poytaxtimizda bo'lib o'tgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlool va davlatchilik" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya jadid bobolarimiz merosini, shaxsini o'rganishda yangi davrni boshlab berdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan o'tkazilgan bu anjuman XIX asr oxiri XX asr boshidagi jadidlar boshlagan "milliy uyg'onish davri" ning ilmiy o'rganilishi va jadid adiblarimiz ijodini teran tahlil qilishda yangicha qarashga undaydi. Shulardan kelib chiqib "Jadidlar va jahon adabiyoti" mavzusiga alohida e'tibor qilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ЎзАС 1989. 8-сентябрь.